

**ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARGA KOXLEAR  
IMPLANTATSIYA OPERATSIYASINI O‘TKAZILISHINING  
ME’YORIY HUQUQIY ASOSI**

*Andijon davlat pedagogika instituti  
Maxsus pedagogika kafedrasi  
o‘qituvchilari;  
Jo‘raxo‘jayev Muhammadaziz  
Mamatisayeva Surayyo  
Axmedova Vazira;  
Mirzayeva Umida;  
Qodirova Mahzuna*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada eshitishni tiklashning zamonaviy usuli bo‘lgan koxlear implantatsiya operatsiyasi va uning eshituv idrokiga samarali ta’siri, koxlear implantatsiyadan so‘ng eshituv reabilitatsiyasining pedagogik usullari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** eshituv idroki, o‘yin faoliyati, reabilitatsiya, koxlear implantatsiya

Mamalakatimizda Tibbiyot muassasalarida koxlear implantatsiya operatsiyalarini o‘tkazish uchun bemorlarni tanlab olish tartibi to‘g‘risidagi Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 19-fevraldaggi PQ-2133-sont qarori bilan tasdiqlangan “Sog‘lom bola yili” Davlat dasturi hamda Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 14-yanvardagi 18-sont qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq koxlear implantatsiya operatsiyalarini o‘tkazish uchun bemorlarni tanlab olish tartibini belilangan. Qarorga muvofiq koxlear implant operatsiyalari quyidagi holatlar koxlear implantatsiya operatsiyasini o‘tkazishga ko‘rsatmalar hisoblanadi:

bola ilk yoshidan eshitish apparatidan doimiy ravishda foydalangan va samarasi past bo‘lganligiga qaramasdan og‘zaki ko‘nikmalar shakllanganligi;

eshitish apparati qo‘llanilganda ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarni 40 foizdan, bir bo‘g‘inli so‘zlarni 20 foizdan kam bo‘lmagan darajada anglash;

faqt past, o‘rta chastotali tovushlarni, 1-2 metr masofadan shartli reflektor reaksiyalari yordamida yuqori chastotali tovushlarni qabul qila olish;

past, o‘rta va yuqori chastotali nonutqiy tovushlarga 3 metrdan kam bo‘lmagan masofadan beixtiyor va ixtiyoriy reaksiyalar mavjudligi;

baland tovush va ovozlarni eshitish reaksiyalarining rivojlanishida ijobjiy o‘zgarishlar mavjudligi;

imo-ishoradan foydalanmagan holda so‘zlovchining yuzidan uning so‘zlayotganligini tushunish;

ovoz faolligining oshishi, undosh harflarga artikulatsiya tovushlarining mavjudligi;

eshitish apparatidan uch oy mobaynida muntazam foydalanish ijobiy natija bermagan va nutqli audiometriya ma’lumotlariga ko‘ra, ochiq tanlangan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarni anglash darajasi 30 foizdan kam bo‘lgan holda faqat so‘zsiz tovushlarga reaksiyaning ijobiy tomonga rivojlanganligi;

akustik refleksometriyada akustik reflekslarning qayd etilmaganligi;

ushlanilgan chaqiriluvchi otoakustik emissiyasida eshitish potensiallarining qayd etilmaganligi;

eshitishning chaqiriluvchi qisqa chastotali potensiallari tekshiruvida V darajali cho‘qqi 30 — 80 detsibelda eshitish potensiallari yo‘qligining qayd etganligi;

modullangan ohangda statsionar chaqiriluvchi eshitish potensiallari qayd etilganligi;

promontorial test ma’lumotlariga ko‘ra, berilgan elektr ta’siri natijasida eshitish hissiyotining paydo bo‘lganligi;

erkin tovushlar maydonida tovush qabul qilish darajasi 2000 va 4000 Gts chastotalarda 55 detsibeldan yuqoriligi;

nur diagnostikasi ma’lumotlariga ko‘ra, koxleovestibulyar patologiyasi, chig‘anoq ichki yuzasining sezilarli obliteratsiyasi hamda retrokoxlear patologiyalarning yo‘qligi.

Quyidagi holatlar koxlear implantatsiya operatsiyasini o‘tkazishga qarshi ko‘rsatmalar hisoblanadi:

kompyuter tomografiyası va magnit rezonans tomografiyası natijalariga ko‘ra, chig‘anoqning elektrod zanjirini kiritishga imkon bermaydigan darajada qisman yoki to‘liq ossifikatsiyasi;

rejali jarrohlik muolajalariga mutloq qarshi ko‘rsatma bo‘luvchi somatik kasalliklarning (yurak-qon tomirlari, buyrak va jigarning og‘ir kasalliklari, qon kasalliklari, qandli diabet, sil, zaxm, orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi va boshqalar) mavjudligi;

nutqning imo-ishora va daktıl nutq asosida to‘liq shakllanganligi;

bemorlar, bemor bolalarning ular bilan birgalikda yashovchi ota-onalarida koxlear implantatsiya opersiyasidan keyingi reabilitatsiya tadbirlarini o‘tkazish va koxlear implantatdan foydalanishni qiyinlashtiruvchi ruhiy va chuqur nevrologik buzilishlar (autizm, shizofreniya, psixopatiya, autoagressiya, epilepsiya, tutqanoq sindromi, elektroensefalogrammada aniqlangan tutqanoqqa moyillik) mavjudligi;

retrokoxlear kasalliklar mavjudligi, auditor neyropatiyadan (chig‘anoq yoki eshituv nervi yo‘qligi, eshituv tizimining yuqori sathlaridagi shikastlanishlar) tashqari;

bemorlarda, bemor bolalarning ota-onalari, ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar yoki homiyalarida, koxlear implantatsiya operasiyasidan keyingi reabilitatsiya tadbirlarini o‘tkazish imkoniyati va istagi yo‘qligi.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar koxlear implantatsiya operatsiyasini o‘tkazganlaridan so‘ng surdopedagog, psixolog va ota-ons bilan hamkorlikda nutqiy muloqot jarayonini shakllantirish kompleks tarzda olib boriladi.

**Koxlear implantatsiya operatsiyasidan keyingi reabilitatsiya tadbirlari**

Koxlear implantatsiya operatsiyasi o‘tkazilgan uch yoshgacha bemor bolalarda uch yil, uch va undan katta yoshdagi bemorlarda kamida besh yil davomida Markaz tomonidan koxlear implantatsiya operatsiyasidan keyingi reabilitatsiya tadbirlari o‘tkazilishi zarur. Bemor, bemor bolalarning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar koxlear implantatsiya operatsiyasidan keyingi reabilitatsiya tadbirlari haqida Komissiya ko‘rigidan o‘tish vaqtida xabardor qilinishlari lozim. Bemorlarning koxlear implantatsiya operatsiyasidan keyingi reabilitatsiya tadbirlarida ishtirok etishlarini monitoring qilish maqsadida bemorda koxlear implantatsiya operatsiyasi o‘tkazilganligi haqida ikki hafta ichida Markaz tomonidan bemorning doimiy yashash joyidagi tuman (shahar) tibbiyat birlashmasiga xabar beriladi. Bemorlar koxlear implantatsiya operatsiyasi o‘tkazilgan kundan boshlab to‘rt hafta ichida nutq protsessorini ishga tushirish uchun Markazga kelishlari lozim. Nutq protsessori Markazning audiolog mutaxassislari tomonidan ishga tushiriladi. Nutq protsessorining kafolati va ehtiyoj qismlari bemor, bemor bolaning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga yozma ravishda topshiriladi hamda ularga nutq protsessoridan foydalanish shartlari tushuntiriladi. Nutq protsessori Markazning audiolog mutaxassislari tomonidan quyidagi muddatlarda sozlab turiladi:

birinchi sozlash — nutq protsessori ishga tushirilgan paytda, ya’ni koxlear implantatsiya operatsiyasi o‘tkazilgan kundan boshlab to‘rt haftadan keyin;

ikkinchi sozlash — birinchi sozlash o‘tkazilgan kundan o‘n sakkiz — yigirma kundan keyin;

uchinchchi sozlash — ikkinchi sozlash o‘tkazilgan kundan to‘rt haftadan keyin;

uchinchchi sozlashdan keyingi sozlashlar — koxlear implantatsiya operatsiyasi o‘tkazilgan kundan bir yil davomida har oyda, ikkinchi yil davomida har chorakda, uchinchi yil davomida har olti oyda.

Koxlear implantatsiya operatsiyasi o‘tkazilgan kundan uch yil o‘tgach, nutq protsessori Markazning audiolog mutaxassislari tomonidan har yili bir marta profilaktik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki eshitishda muammolari bo‘lgan bolalar uchun koxlear implant zamonaviy yechim sifatida tan olingan. Koxlear implant operatsiyasining samaradorligi bola bilan operatsiyadan oldin va keyin olib borilgan pedagogik shart sharoitlarga va bolaning yosh va individual xususiyatlariga bog‘liq.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mamatisayeva, S. (2025). Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'limni tashkil etishning dolzarb masalalari. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 3(3).
2. Koroleva I.V. Kar bolalar va kattalami koxlear implantatsiya qilish (elektrod eshitish protezlari). - SPb.: KARO, 2008
3. Mamarajabova Z.N.Koxlear implantli eshitish moslamalari o'rnatilgan, zaif eshituvchi bolalar eshituv-nutqiy reabilitatsiyasi- Toshkent:
4. Kuzmicheva E.P., Yaxnina S.Z. Kar bolalarda og'zaki nutqni rivojlanadirish. - M., 2003 yil.
5. Koroleva I.V. Koxlear implantatsiya gluxix detey i vzroslbix (elektrodnaye protezirovaniye sluxa) SPb.: KARO, 2009.. (15-19b).
6. Mamarajabova Z.N.Koxlear implantli eshitish moslamalari o'matilgan, zaif eshituvchi bolalar eshituv-nutqiy reabilitatsiyasi- Toshkent: AktivPrint, 2020.
7. Mamatisayeva, S. (2025). KOXLEAR IMPLANTAT BOLALARDA OG 'ZAKI NUTQNI IDROK ETISHNI RIVOJLANIRISHDA PEDAGOGIK USULLAR. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.1), 388-392.
8. Adhamjonova, M., & Mamatisayeva, S. (2025). NUTQ KAMCHILIGIGA EGA BO'LGAN BOLALAR NUTQNI TEKSHIRISH USULLARI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.1), 478-479.
9. Mamatisayeva, S. (2025). Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'limni tashkil etishning dolzarb masalalari. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 3(3).